

ANZUR PIYOZI O'SIMLIGI TARKIBI VA UNI YETISHTIRISH AGROTEKNIKASI

¹*Abduvaliyev Mirjalol Ne'mat o'g'li*

²*Po'latova Munisa Abdunabi qizi*

³*Mamatkulova Iroda Ergashevna*

^{1,2,3}*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston*

Miliy Universiteti Jizzax filliali

Annotatsiya: Iqlim o'zgarishi sharoitida va hozirgi ekalogik muhitni hisobga olgan holda insonlarga sifatli va hamyonbob oziq- ovqat maxsulotlarini yetishtirish bo'yicha amaliy yordam berish usullarini o'rgatish va amaliyotga joriy qilish usullarini ishlab chiqish.

Kalit so'zlar: Allium suvoros Anzurpiyoz, Alliaceae oilasi, Tog' piyoz, Suvorovning kamoni.

Kirish. Dunyo aholisi yil sayin ortib borayotganini va hozirgi global muammolarni hisobga olgan holda hozirgi kunda ularning tabiiy holatda oziq-ovqatga bo'lgan talabi ham kun sayin oshib bormoqda. Shu munosabat bilan ekalogik jihatdan toza sifatli mahsulotlarni yetishtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Allium suvoros (Anzur piyozi) piyozdoshlar oilasiga mansub bo'lib bu o'simlik ko'p yillikdir. O'zbekiston Respublikasining tog'li hududlarida uchraydi. Anzur piyozining barglari keng, yassi, uzun, yashil yoki och yashil tusda. Piyozni yirik dumaloq diametri 6 sm bo'lib oq yoki sarg'ish rangda bo'ladi. Piyoz ekilgandan keyin birinchi yili rivojlanishi sustroq kechadi, ammo ikkinchi yildan vegetative davri tabiiy sharoitdagi kabi rivojlanishni boshlaydi. Tabiiy sharoitdan olib kelingan piyozlar ikkinchi yildan generative fazaga o'tib, urug' berish holatini kuzatishimiz mumkin. O'simlik urug'lari va piyozi orqali tez vegetativ ko'payish xususiyatiga ega. Bu o'simlik soyaga va qurg'oqchilikka ham chidamlidir. [1] Piyozni kuzda ya'ni sentabrning oxirida oktyabrning boshlarida yerga 8-10 sm bo'lgan chuqurlikka ekiladi. [3] Piyozning kattaligiga qarab 20-25 sm oraliqga ekiladi. Anzur piyozi yorug'likka talabchan bo'lib namlikni uncha yaxshi ko'ravermaydi. Agar suv almashinuvi buzilmasa, piyozlarni bir xil rejimda o'sish holatini kuzatishimiz mumkin. Piyoz urug'lari 1,5 dan 2 sm gacha mumkin bo'lgan chuqurlikka ekildi. Shu bilan birga, qatorlar orasida 10-15 sm bo'sh joy qoldirish kerak. Anzur piyoz yetishtirishda duch kelishlari mumkin bo'lgan holat piyozlarning turli xil kasalliklarga chalinishidir. Agar biz urug'larni ekish haqida gapiradigan bo'lsak, unda ular ham oldindan diqqat bilan tekshiriladi. Zarar yetkazilgan qismlar darhol olib tashlanadi, shundan so'ng yuqori sifatli material kaliy permanganatning kuchsiz eritmasida 30 daqiqa davomida namlanadi. O'simliklar

ekiladigan tuproq unumdor va yaxshi qayta ishlangan bo'lishi kerak. To'g'ri ekishdan so'ng, Anzur piyozi muntazam va ehtiyotkorlik bilan parvarish qilishni talab qiladi.[5] Hech qanday holatda bunday tartiblarni e'tiborsiz qoldirmaslik kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, bu o'simlik oddiy, murakkab parvarish choralarini talab qilmaydi. Boshqa har qanday bog' o'simliklari kabi, anzur u piyozini ham sifatli o'g'itlar bilan o'g'itlash kerak. Dastlabki oziqlantirish o'simlikning birinchi kurtaklari paydo bo'lgan paytda amalga oshirilishi kerak. Buning uchun karbamid va azot o'z ichiga olgan preparatlar eng moskeladi. Anzur piyozi o'sadigan tuproq har sug'orishdan keyin yoki oxirgi yomg'irdan keyin yumshatilishi kerak. Shuningdek, o'simliklarga zararli ta'sir ko'rsatadigan barcha hosil bo'lgan begona o'tlarni olib tashlash kerak.[2]

Anzur piyozi tarkibi: 2,4—14% qand, 2—13,9 mg% S vitamini, efir moyi, bargidaesa 19—57,7 mg% S vitamini, shuningdek, A, V, V2 vitaminlariva 1,3—5,9 mg% A provitamini, limon va olma kislotalar, fitonsidlar C, B6 vitamini, foliy kislotasivakaliyga boy bo'lganpiyozda, shuningdek, kletchatkaning ham koni. Piyozdagi fitokimyoviy modda, immunitetni mustahkamlab, virus va bakteriyalardan himoya qiluvchi oqsillarning ajralishini jadallashtiradi.[4]

Xulosa: O'rganish natijasida anzur piyoz o'simligimizning urug' tarkibi piyozi va yetishtirish bo'yicha ham ma'lum bir ma'noda o'zimga kerakli ma'lumotlarni oldim deb bilamn. Bu piyozni yetishtirib har tomonlama insonlarga foydamiz tegadi degan umiddamiz va bu ishlarmiz hamda qiziqshlarmizni yanada kengaytiramiz va amaliyotga joriy etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Уралов А.И., Печеницын В.П. Зависимость семенной продуктивности луковичных видов AlliumL. от количества листьев на генеративном побеге. Доклады АН РУз. 2015. 74-77 с
2. O'. Ahmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yo'lchiyev, S. Azibmoyev. Dorivoro'simliklarniyetishtirish texnologiyasi. Toshkent "NIF MISH"-2020.
3. Haydarov.X, Tashpulatov.Y, Jalov.X, I. Mukumov. O'simliklar sistematikasi (Yuksako'simliklar). Samarqand -2019.
4. H.S.Yo'ldoshov O'simlik mahsuldorligini yetishtirish texnologiyasi. Toshkent "ILM ZIYO"-2013.
5. Qishloq xo'jalik ekinlari zararli organizmga qarshi kurashish vostalari. Toshkent "Tasvir"-2021.
6. O.S. Abduraimov, I.E. Mamatkulova, A.V. Mahmudov "Structure of local populations and phytocoenotic confinement of Elwendia persica in Turkestan Ridge, Uzbekistan". BIODIVERSITAS ISSN: 1412-033X. Volume 24, Number 3, March 2023 E-ISSN: 2085-4722. Pages: 1621-1628 DOI:10.13057/biodiv/d240334

7. Mamatkulova I.E. "Elwendia Boiss turkumi turlarida efir moyi va antioksidantlik faolligini o'rganish". Материалы научной конференции проблемы биофизики и биохимии - 2023. 119 стр. 19 мая 2023 года
8. Ergashevna M. I., Abduvaliyevich M. M. Elwendiya boiss turkumi turlarining antioksidantlik xususiyatlari //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 498-500.
9. Baxodir o'g'li A. B. et al. IN VITRO SHAROITIDA MAXSULOT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 569-571.
10. O'G'Li A. B. B., Ergashevna M. I., Iskandarovich O. R. A. BIOYOQILG 'ILARNI SANOATDA OLISH TEXNOLOGIYASI VA ULARNING IMKONIYATLARI //Endless light in science. – 2022. – №. декабрь. – С. 150-154.
11. Baxodir o'g'li A. B. et al. ODDIY KANAKUNJUT (RICINUS COMMUNIS L) O 'SIMLIGINING AHAMIYATI VA AGROTEXNOLOGIYASI //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 1605-1609.
12. Baxodir o'g'li A. B., Iskandarovich O. A., Abduvaliyevich M. M. AMARANT (AMARANTHUS) NING-BOTANIK TASNIFI VA DORIVORLIK XUSUSIYATI //SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 336-337.
13. Джамоатова Ф., Анваров Б. Hypericum perforatum 1 osimligining dorivorlik xususiyati va genetik tahlili //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 276-278.